

# **0‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutida “Teatr san‘atida vokal ijro mahorati: kecha va bugun” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjumani bo‘lib o‘tdi**

Anjumanda soha mutaxassislari: teatr san‘atida vokal ijrochiligi bo‘yicha ijod qilib kelayotgan aktyorlar, teatrshunoslar, musiqashunoslar, san‘at ta‘limi yo‘nalishlarida faoliyat yuritayotgan pedagoglar, yosh tadqiqotchilar hamda o‘zining ko‘p yillik tajribalari, ilmiy izlanishlari, tadqiqotchilik va pedagogik faoliyati bilan soha rivojiga katta hissa qo‘shib kelayotgan yirik ijodkor va olimlar ishtirok etdilar.



Dastlab, anjumanni institut rektori, professor Nodirbek Sayfullayev kirish so'zi bilan ochib berdi. U anjuman mavzusiga e'tibor qaratar ekan, teatr san'atida vokal ijrochiligining nafaqat tarixi va bugungi kuni balki, uning istiqbolli taqdiriga ham ahamiyat qaratish lozimligini aytiib o'tdi. Anjuman davomida bu masalalar ham chuqurroq o'rganilishiga ishonch bildirdi. N. Sayfullayev so'zi yakunida barcha ishtirokchilarga o'z minnatdorligini bildirib, anjuman ishiga omad tiladi.



Konferensiya yalpi majlisida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
"Musiqali teatr san'ati" kafedrasi dotsenti Bahodir Nazarovning "Mustaqil teatr aktyorining rol ustida ishlash nahorati" mavzusida,



Alisher Navoiy nomidagi Davlat akademik katta teatri solisti, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist Ma'sumaxon Boltaboyevaning "Saodat Qobulova – O'zbekiston opera san'atining buyuk namoyandasi" (hayoti va ijodiga chizgilar) mavzusidagi, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Vokal" kafedrası professori, "Do'stlik" ordeni sohibasi Dilbar Malikovanning "Musiqali teatr aktyorlarining vokal ijrochilik malakalarini shakllantirishdagi ayrim musiqiy muammolar" mavzusidagi,



O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Musiqali teatr san'ati" kafedrasi professori v.b. Rashid Usnatovning "Musiqali asar tanlash, stol atrofida ishlash va kechinma san'ati to'g'risida tushuncha, vokal san'atining teatr sahnalarida tutgan o'rni va o'ziga xosligi" mavzusidagi hamda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Vokal" kafedrasi dotsenti Dilmurod Uzoqovning "Vokal san'atining teatr sahnalarida tutgan o'rni va o'ziga xosligi" mavzusidagi ma'ruzalari tinglandi.





Har bir ma'ruza anjuman ishtirokchilari tomonidan qizg'in qabul qilindi va bahs-munozaralarga boy bo'ldi.